ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

RAXIMOVA NIGORA POLVONNAZIROVNA

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI DORIVOR O‘SIMLIK NOMLARINING KOGNITIV-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UDK: 811.512.133'37:61+811.111'37:61

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on Philological Sciences

Raximova Nigora Polvonnazirovna
O‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlarining kognitiv-semantik xususiyatlari..... 3

Rakhimova Nigora Polvonnazirovna
Cognitive and semantic features of the names of medicinal plants in the Uzbek and English languages 25

Raximova Nigora Polvonnazirovna
Когнитивно-семантические особенности названий лекарственных растений в узбекском и английском языках 48

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 58

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

RAXIMOVA NIGORA POLVONNAZIROVNA

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI DORIVOR O‘SIMLIK NOMLARINING KOGNITIV-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil14685 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti veb-sahifasida (www.tsuull.uz) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Xolmanova Zulxumor Turdiyevna** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna** filologiya fanlari doktori, professor
	Muratxodjayeva Feruza Xotamovna filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil “15” 09 soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@tsuull.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (962 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “22” 08 kuni tarqatildi.

(2025-yil “22” 08 dagi [illegible] raqamli reyestr bayonnomasi).

N.Z.Normurodova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

Q.U.Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

S.E.Normamatov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida antroposentrik yondashuv inson tili va tafakkurining yaxlitligini asoslash, ularni murakkab psixik-kognitiv jarayonlarning ifoda shakllari sifatida baholash imkonini bermoqda. Lisoniy birliklar konseptni ifodalash vositasi sifatida tadqiq etilmoqda. Tilning ma'lumotlarni to‘plash funksiyasi, lug‘aviy birliklarning tushunchani nomlash, denotat belgilarini ifodalashdagi konseptual xususiyatlari lingvokognitiv aspektdagi yondashuvni taqozo qiladi. Lug‘aviy birliklar olam manzarasini aks ettirish bilan bir qatorda til sohibining tafakkur darajasi, idrok etish qobiliyati va munosabati ifodasi bilan markerlangan fon bilimlarni o‘zida mujassamlantiradi. Lug‘aviy birliklarda aks etgan, til egasining idroki va bahosi bilan izohlanuvchi ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning kognitiv belgilarini tadqiq qilish milliy, etnik tafakkur hamda til taraqqiyotini o‘rganishda ahamiyatlidir.

Dunyo tilshunosligida lug‘aviy birlik, so‘z va termin munosabati, terminlarning yuzaga kelish omillari, semantik xususiyatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Turli sohalar terminologiyasidagi jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarining in'ikosi tilshunoslarga maxsus sohada qo‘llanadigan terminlarni til va tafakkur munosabatiga asosan tadqiq etish vazifalarini yuklamoqda. Terminologiya tizimida nazariy va amaliy masalalarni inson omili bilan uyg‘unlikda tadqiq etish zamon talabiga aylanmoqda. Umumiste'mol so‘zlarining muayyan soha doirasi uchun xoslanib, terminga aylanishi, ma'no jihatdan torayishi, metafora, metonimiya asosida yangi tushunchalarni ifodalashi lug‘aviy birliklarning konseptni aks ettirish imkoniyatini tahlil qilish orqali ko‘rsatib beriladi. Turli tizimdagi tillarda soha terminlarining shakllanishi, davrlar osha uzviy ravishda rivojlanishi, o‘zgarishlarga uchrashini kognitiv aspektda tadqiq etish tilni tafakkur, idrok mahsuli sifatida talqin qilishda dolzarblik kasb etadi.

O‘zbekistonda mustaqillikdan so‘ng soha terminologiyasi, xususan, biologiya terminlarini lingvistik aspektda tadqiq etish va ularni tizimlashtirishga qaratilgan tadqiqotlarga alohida ahamiyat berilmoqda. "Mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida, jumladan, davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa sohalarda davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq hamda to‘g‘ri foydalanishga erishish" talabi qo‘yilmoqda[1]. Terminlarni tizimlashtirish, tartibga solish, o‘zlashtirish masalalari soha rivojida va ta'limida asosiy omil sifatida qaraladi. Biologiya terminlarini integratsiya asosida o‘rganish, xususan, o‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlarini kognitiv yondashuv asosida tahlil qilish umumiy hamda xos xususiyatlarini aniqlashda ahamiyatlidir. Dorivor o‘simlik nomlarining shakllanishidagi kognitiv omillarni aniqlash, leksik-semantik, grammatik, etimologik xususiyatlarga kognitiv belgilarni aks ettirish nuqtayi nazaridan yondashish soha terminlarini o‘zlashtirishda va terminologik tizimni takomillashtirishda ahamiyatga ega.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-5850-son farmoni.. https://lex.uz/

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 10-apreldagi PF-5707-son “2019-2021-yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog‘ini yanada jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-dekabrdagi 994-son “Dorivor o‘simliklarni yig‘ish va ulardan foydalanishni tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tibbiyot, biologiya terminlariga oid eng qadimgi manba Abu Ali Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari hisoblanadi[2]. Abu Bakr Ar-Roziy[3], Mahmud Koshg‘ariy[4] kabi qomusiy olimlar tibbiy terminlarning ilk tadqiqotchilaridir. Abu Rayhon Beruniyning “Saydana” asari dunyo farmakogniziyasining shakllanishiga asos bo‘lgan manba ekanligi bilan ham qimmatlidir [5] . Dorivor o‘simlik nomlari tibbiy terminologiya va biologiya, farmatsevtikaga doir izlanishlarda tahlil etilgan. Tibbiyot terminologiyasining nazariy asoslarini belgilashda M.Chernyavskiy, Y.Neyfax, S.Velichkova, M.Oznigin, Y.Plotskaya[6] izlanishlarini qayd etish lozim. Dorivor o‘simliklar nomi N.Sh. Yagumova O. Vasilenko O.G. Rubsova, M. Velkovich, T.V.Kurkina tadqiqotlarida tahlil qilingan[7]. Ingliz tilidagi fitonimlar, xususan dorivor o‘simlik

[2]Абу Али Ибн Сино. Тиб қонунлари. V китоб. – Т., 1992.- Б152.

[3]Абу Бакр Ар-Розий. Касалликлар тарихи. – Т.: Халқ мероси, 1994.

[4]Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I том. – Т., 1960. – 250 б.; II том. – Т. 1961. – 214 б.; III том. – Т., 1963. – 264 б.

[5] Саидова Ф. “Китаб ас-Сайдана фи-т-тиб” (“Книга фармакогнизия в медицине”) Абурайхана Беруни источник развития таджикской медицинской терминологии. Дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2013. – 200 б.

[6] Чернявский М.Н. О состоянии древнегреческой фармацевтической терминологии по трудам Гиппократа. Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1996; Нейфах Е.Б. О немецкой фармацевтической терминологии. Дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 1996; Величкова С.М. Структурно-семантические особенности медицинской терминологии в сфере стоматологии (на материале русского и немецкого языков). Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2006. – 165 с.

[7] Куркина Т.В. Когнитивные основы наименований компонентов действующих веществ лекарственных растений. Автореф. дисс. . канд. филол. наук. – М., 2003; Ягумова Н.Ш. Фитонимическое пространство в языковой картине мира: словообразовательный и мотивационный аспекты (на материале английского и адигейского языков). Автореф. дисс. …канд. филол. наук. – Майкоп, 2008. – 26 с.; Василенко О.И. Отфитонимическая семантическая деривация в современном литературных русском и английском языках.

nomlari qiyosiy va chog‘ishtirma aspektda o‘rganilgan[8]. Turkologiyada dorivor o‘simlik nomlari V.V.Nikitin, B.B.Kerbabayev, N.B.Burganova, Y.Dmitriyeva, G.I.Uyukbayeva, B.K.Kaliyev, E.S.Kuliyev, E.R.Axmetova izlanishlarida fitonimlar tarkibida tadqiq etilgan[9].

O‘zbek tilshunosligida tibbiy terminlar A.Xusanov, A.Kasimov, Z.Mirahmedova, F.Abdulxairova, B.Suyunov tadqiqotlarida lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganildi [10] . N.Pazlitdinova fitonimlarning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qildi[11]. O‘zbek mumtoz asarlaridagi fitonimlarning leksik-semantik, stilistik tahlili amalga oshirildi[12]. O‘zbek tilidagi shifobaxsh o‘simliklar nomi chog‘ishtirma aspektda tadqiq etilgan[13].

O‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlari lingvokognitiv aspektda monografik tarzda tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Tilning ijtimoiy, tarixiy va zamonaviy taraqqiyoti” mavzusi doirasida bajarilgan.

Автореф. ...дисс. канд. наук. – Екатеринбург, 2008. – 24 с.; Рубцова О. Г. Названия лекарственных растений в разноструктурных языках (на материале русского, марийского, немецкого и латинского языков). Дисс. канд. филол. наук. – Йошкар-Ола, 2015; Велькович М. Фитонимы в русском языке: лингвокультурологический и лексикографический аспекты (на фоне сербского языка). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – СПб., 2022. – 27 с.

[8] Сивакова Н.А. Лексикографическое описание английских и русских фитонимов в электронном глоссарии. Автореф. ... канд. филол. наук. – Тюмень, 2004. – 24 с.; Ягумова Н.Ш. Фитонимическое пространтство в языковой картине мира: словообразовательный и мотивационный аспекты. Автореф. ... канд. филол. наук. – Майкоп, 2008. – 26 с.; Величко О.В. Англо-французские заимствования в русской медицинской терминологии. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Астрахань, 2010. – 24 с.; Худойқулова Д.К. Фармацевтик терминларнинг лекскикографик ва функционал-семантик тадқиқи (инглиз, рус, ўзбек тиллари мисолида). Филол. фан. б. фалс. док (PhD). … дисс. – Т., 2022. – 24 б.; Қосимова Ф.Х. Ўзбек-инглиз тиббий терминлари ва уларнинг лингвокультурологик тадқиқи. Филол. фан. б. фалс. док (PhD). ... дисс. – Андижон, 2022. – 24 б.; Сапаева Д. Н. Инглиз ва ўзбек тилларида тиббиёт терминологиясининг таркибий-семантик хусусиятлари (дерматовенерологияга оид лексикалар мисолида). Филол. фан. б. фалс. док. (PhD). ... дисс. – Т., 2022. – 165 б.

[9]Никитин В.В., Кербабаев Б.Б. Народные и научные туркменские названия растений. – Ашхабад, 1962; Бурганова Н.Б. О татарских народных названиях растений // Вопросы лексикологии и лексикографии. – Казань, 1976. – С. 125; Дмитриева Ю. Названия деревьев в чувашском языке // Проблемы исторической лексикологии чувашского языка. – Чебоксары, 1980; Уюкбаева Г.И. Народные наименования растений в казахском языке. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1983. – 24 с.; Калиев Б.К. Названия растений в казахском языке. Автореф. дисс... д-ра филол. наук. – Алма-Ата, 1991. – 47 с.; Кулиев Э.С. Фитонимы в азербайджанском языке (опыт историко-типологического анализа). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Баку, 1987. – 47 с.; Ахметова Э.Р. Названия овощей и фруктов в татарском языке. – Казань, 2012.

[10]Хусанов А. Названия болезней и их симптомов в узбекском языке. Дисс. ...канд. филол. наук. – Т., 1982. – 188 с.; Касымов А. Фармацевтическая терминология в современном узбекском языке. – Т., 1982. – 156 с.; Мираҳмедова З. Ўзбек тилининг анатомия терминологияси ва уни тартибга солиш муаммолари. – Т.: Фан, 2010; Абдулхаирова Ф. Ўзбек тилида тиббиёт атамаларининг метафорик манзараси. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Т., 2021; Суюнов Б. Тиббий терминлар семантикаси ва тезауруси. Филол.ф. д(DSc) ... дисс. – Т., 2023. – 207 б.

[11] Пазлитдинова Н.З. Ўзбек тили фитонимларининг лексик-семантик хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD). ... дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 24 б.

[12] Усманова М.С. Алишер Навоий асарларидаги фитонимларнинг лексик-семантик ва стилистик тадқиқи. Филол. фан. б. фалс. док (PhD). ... дисс. – Жиззах, 2022. – 170 б.

[13] Бобокалонов О.О. Француз ва ўзбек тиллари шифобахш ўсимликлар терминосистемасининг лингвомаданий ва лингвокогнитив хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD). ... дисс. автореф. – Бухоро, 2022.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlari shakllanishining kognitiv omillari, tamoyillarini aniqlash, o‘simliklarning belgilari, davolash xususiyati haqidagi konseptosferaning terminlarda aks etish darajasini asoslash, turli tizimdagi tillar o‘rtasidagi o‘xshash hamda farqli kognitiv belgilarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlarining mental strukturasini aniqlash, tarixiy-etimologik, terminologik tizim sifatidagi xususiyatlarini yoritish;

o‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlari shakllanishidagi rang, tashqi belgi, davolash xususiyati va boshqa freymlar asosidagi kognitiv omillar va tamoyillarni aniqlash;

o‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlarining umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini ajratish va tavsiflash;

o‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlarini kognitiv maydon va kognitiv belgi asosida tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek va ingliz tibbiy terminlar lug‘atlari hamda manbalaridagi[14] dorivor o‘simlik nomlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlarining til egasi tafakkuri, idroki, mental strukturasini ifodalash xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tavsiflash, qiyosiy-tarixiy, statistik, modellashtirish, komponent tahlil metodi va semantik-kognitiv tahlildan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlarining mental strukturasi aniqlangan, tarixiy-etimologik xususiyatlari, terminologik tizim sifatidagi taraqqiyotida aks etgan mental omillar ochib berilgan;

dorivor o‘simliklarning qadimdan inson hayotida muhim o‘rin tutgani, ularni o‘zbek va ingliz tillarida nomlashda rangi (*sariq andiz, za’faron, rosa)*, tashqi belgilari (*botako‘z, cassia acutifolia* “ninabarg”), davo bo‘lish xususiyati (*ko‘kyo‘tal, rhodiola*), makon, iqlim muhiti (dalachoy, *arnica montana “*tog‘ arnikasi”, *gnaphalium uliginosum* “botqoq o‘ti”, *Helichrysum arenarium* “qumli o‘lmas”), dorivorlik (*rhodiola*) freymlari asosidagi kognitiv omillari, nomlashdagi mental jarayonlar va ularning ko‘rinishlari aniqlangan;

o‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simliklarni nomlashda kishilik jamiyati, insonning tabiiy ehtiyojlaridan kelib chiqadigan umumiy kognitiv yondashuvlarning mavjudligi, o‘zbek va ingliz xalqlarining yashash tarzi, tibbiy

[14] Абу Райҳон Беруний. Сайдана. Танланган асарлар. IV. – Т., 1974. – 1122 b.; Абу Али Ибн Сино. Ал-қонун фит-тиб. – Т., 1993; Набиев М., Жўраев Э., Х. Хайруллаев. Табиий даволар. – Т., 1994; Қосимов А. Тиббий терминлар изоҳли луғати. II жилд. – Т.: Тиббиёт, 2003; Berdiyev E.T., Hakimova M.X., Maxmudova G.B. O‘rmon dorivor o‘simliklari. – T., 2016. – 276 b.; Berdiyev E.T., Ahmedov E.T. Tabiiy dorivor o‘simliklar. O‘quv qo‘llanma. – T., 2017. – 178 b.; Халматов Х.Х., Усмонхўжаев Ф.Х., Махсумов М.И., Ахмедов У.А. Атлас лекарственных растений Узбекистана // Andrew Chevallier. Encyclopedia of Herbal medicine, 2016. – 338 p. // https://www.macmillanthesaurus.com. Enlish-uzbek-russian. Dictionary of pharmaceutical terms. – T., 2020. – 194 p.

qarashlari taraqqiyoti, milliy-madaniy xususiyatlari bilan aloqador bahosiga oid o‘ziga xos belgilar asoslangan;

o‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlarining til sohibi kognitiv maydonidagi o‘rni, yadro, markaz qismlari, yaqin va uzoq sarhadlari aniqlanib, kognitiv maydon tushunchalarining o‘zaro mazmuniy munosabatlari, dorivor o‘simlik nomlarining biologik xususiyatlar bilan bir qatorda xalqning tarixiy, mental, madaniy qarashlarini ham aks ettirishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek va ingliz tillarida dorivor o‘simlik nomlari tadqiqining asosiy yonalishlari aniqlangan;

dorivor o‘simlik nomlarining biologiya, tibbiyot, farmatsevtika sohalari integratsiyasi asosida o‘rganilishi, tavsifi keltirilgan;

o‘zbek va ingliz tillari dorivor o‘simliklar terminologiyasining etimologik xususiyatlari yoritilgan, lug‘aviy qatlamlari ko‘rsatib berilgan;

dissertatsiyada ishlab chiqilgan tahlil usullaridan sohaga doir terminlar tahlilini amalga oshirish mumkin;

o‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlari tahliliga oid xulosalar farmatsevtika institutlarida ta’lim jarayonida, amaliy mashg‘ulotlarda manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilgani, ilmiy manbalardagi nazariy ma’lumotlarga tayanilgani, tilshunoslikdagi eng so‘nggi ilmiy yutuqlardan foydalanilgani, nazariy qarashlar va xulosalarning ilmiy-metodologik jihatdan asoslangani, amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani, xorij tajribasida sinalgan tadqiq usullarining tatbiq etilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek tili va ingliz tili tibbiy terminlarining lingvistik ta’minotini ishlab chiqishda, lingvokognitiv yo‘nalishda tadqiqotlar olib borishda ilmiy-nazariy manba bo‘lishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy o‘quv yurtlarining bakalavr va magistr talabalari uchun “Tilshunoslik nazariyasi”, “Hozirgi o‘zbek tili”, “Leksikologiya”, “Lingvokulturologiya” “O‘zbek terminologiyasi”, shuningdek, tibbiyot fanlaridan yangi darsliklar, qo‘llanmalar va ma’ruza matnlari tuzish, lug‘atlar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek va ingliz tili dorivor o‘simliklarining lingvokognitiv xususiyatlari tadqiqi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

dorivor o‘simliklarning qadimdan inson hayotida muhim o‘rin tutgani, ularni o‘zbek va ingliz tillarida nomlashda rangiga (*sariq andiz, za’faron, rosa)*, tashqi belgilariga (*botako‘z, cassia acutifolia* “ninabarg”), davo bo‘lish xususiyatiga (*ko‘kyo‘tal, rhodiola*), makon, iqlim muhitiga (dalachoy, *arnica montana “*tog‘ arnikasi”, *gnaphalium uliginosum* “botqoq o‘ti”, *Helichrysum arenarium* “qumli o‘lmas”) asoslanilgani haqidagi ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2019-2022-yillarda bajarilgan PZ-2020042022 raqamli *“Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron*

platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 3-oktyabrdagi 01/6-2692-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘simlikni nomlashdagi kognituv yondashuv asoslari turkiy tillar, xususan, o‘zbek tili sohiblari ongida aks etgan dorivor o‘simliklar lisoniy manzarasi haqidagi ma’lumotlar, nomlarning shakllanishidagi kognitiv omillarga oid materiallar bilan boyitilgan;

o‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simliklarni nomlashda kishilik jamiyati, insonning tabiiy ehtiyojlaridan kelib chiqadigan umumiy kognitiv yondashuvlarning mavjudligi, o‘zbek va ingliz xalqlarining yashash tarzi, tibbiy qarashlari taraqqiyoti, dorivor o‘simliklar lisoniy manzarasida aks etgan mental yondashuv, milliy-madaniy belgilar bilan aloqador bahosi haqidagi ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2022-2023-yillarda bajarilgan IL-52 tur-21091433 raqamli *“O‘zbek milliy madaniyatiga xos atamalarga oid maqolalar bazasini yaratish”* (Vikipediya elektron ensiklopediyasi mezonlari asosida) mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 3-oktabrdagi 041/6-269-son ma’lumotnomasi). Natijada “Tib qonunlari”, “Saydana”, “Urjuza”da aks etgan o‘zbek xalqi, turkiy xalqlarning dorivor o‘simliklarni nomlashdagi mental xususiyatlari, idroki, milliy-madaniy belgilariga oid xulosalar, ingliz tilidagi dorivor o‘simlik nomlarining shakllanishiga oid chog‘ishtirma tahlillar loyihada rejalashtirilgan ma’lumotlar bazasini boyitishga xizmat qilgan;

o‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlarining til sohibi kognitiv maydonidagi o‘rni, yadro, markaz qismlari, yaqin va uzoq sarhadlari aniqlangan; kognitiv maydon tushunchalarining o‘zaro mazmuniy munosabatlari, dorivor o‘simlik nomlarining biologik xususiyatlar bilan bir qatorda xalqning tarixiy, mental, madaniy qarashlarini aks ettirishiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2022-2023-yillarda bajarilgan IL-52 tur-21091433 raqamli *“O‘zbek milliy madaniyatiga xos atamalarga oid maqolalar bazasini yaratish”* (Vikipediya elektron ensiklopediyasi mezonlari asosida) mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 3-oktabrdagi 041/6-269-son ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqotda aniqlangan “Tib qonunlari”, “Devonu lug‘otit turk”da aks etgan o‘zbek xalqi, turkiy xalqlarning dorivor o‘simliklarni nomlashdagi mental xususiyatlari, idroki, milliy-madaniy belgilariga oid xulosalar, ingliz tilidagi dorivor o‘simlik nomlarining shakllanishiga oid chog‘ishtirma tahlillar amaliy loyihada rejalashtirilgan ma’lumotlar bazasini boyitishga xizmat qilgan;

o‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlarining mental strukturasi aniqlangan, tarixiy-etimologik xususiyatlari, terminologik tizim sifatidagi taraqqiyotida aks etgan mental omillar, dorivor o‘simliklarni nomlashda xalq ijtimoiy turmush tarzi va milliy madaniy qarashlarining ahamiyati ko‘rsatilgan tahlillardan, o‘simlik nomlarida aks etgan kasallik semalari, tibbiy jarayonlarga aloqador tushunchalar, o‘simlik nomlarining etimologiyasi, o‘z va o‘zlashgan qatlam nunosabati, “Tib qonunlari”, “Saydana” asarlaridagi arxaik shakllarning

freym tahlillariga oid ilmiy xulosalardan “O‘zbekiston tarixi” telekanali “Hamma uchun” ko‘rsatuvi ssenariysini yozishda foydalanilgan (O‘zMTRK “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 7-oktabrdagi 06-28-942-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simliklar nomida aks etgan milliy-madaniy belgilar, dori nomlarining lingvostatistik tahlili, tarixiy-etimologik, semantik xususiyatlari, dorivor o‘simliklar nomlarining shakllanishidagi lingvokognitiv omillar ko‘rsatuvlar mazmunini ma’naviy-ma’rifiy jihatdan boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 4 ta xalqaro va 3 ta respublika anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 13 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6ta maqola, 3tasi respublika hamda 3tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, shartli qisqartmalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilova qismlaridan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 135 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning dastlabki bobi **“Dorivor o‘simlik nomlari tadqiqining nazariy asoslari”**ga bag‘ishlangan.

§ 1.1. *Jahon tilshunosligida dorivor o‘simlik nomlari tadqiqi.* Terminologiya – tilshunoslikda muayyan fan sohasiga tegishli bo‘lgan maxsus tushuncha va nomlarni ifodalashda ishlatiladigan so‘z hamda so‘z birikmalari majmuasi. Terminologiya har qanday milliy tilning mustaqil sektori bo‘lib, kasbiy faoliyat bilan chambarchas bog‘liq. Tibbiy terminologiya tarixi qadim davrlarga borib taqaladi. Yevropa tibbiyoti va tibbiyot terminologiyasi tarixi “Gippokrat yig‘ma jildi”dan boshlanadi [15] . Dioskorid (Rim imperatorlari Klavdiy, Neronlar hukmronlik yillarida yashagan) tomonidan yozilgan “Davolash vositalari” nomli asar ham mashhur bo‘lgan. Bu asarda 570ta shifobaxsh o‘simlikdan olinadigan dorilar haqidagi ma’lumotlar bayon qilingan[16]. Dorivor o‘simliklar nomining tibbiy terminlar tarkibida qadimgi hind tabobati davridan o‘rganilganini kuzatish mumkin. Qadimgi hind tabibi Sushruta (IV asr) “Ayurveda” /“Yajur-Veda”

[15] Медицинская энциклопедия http://dic.academic.ru/contens.nsf.

[16] Gisarov F. M. Uyg‘ur tilidagi o‘simlik nomlarida arabizmlar. //Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Volume 1 | issue 6 Issn 2181– 1784. Scientific Journal Impact Factor, 2021.

(Hayot haqidagi fan) asarida 700 dan ortiq shifobaxsh o‘simliklar nomini keltirgan, ularning ko‘pi hozirgi kunda ham hind tabobatida ishlatilmoqda[17].

Tibbiy terminlar, dorivor o‘simlik nomlarining ilk tadqiqotchilaridan bo‘lgan Abu Ibn Sino tomonidan taklif etilgan ko‘pgina dori nomlari farmakologiyaga kiritilgan bo‘lib, hozirgacha qo‘llanib kelmoqda. Olimning 20 yil davomida o‘tkazgan tibbiyot amaliyotida to‘plagan tajribalari asosida yaratgan 5 jildlik “Al-qonun” (“Tib qonunlari”)[18] kitobi asrlar davomida nafaqat arablar, balki Yevropa shifokorlariga ham dasturulamal bo‘lib xizmat qilgan. Kitobda 500 dan ortiq dorivor o‘simliklar nomi qayd etilgan hamda ulardan tayyorlangan 40 dan ziyod dorivor vositalar nomi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ibn Sino O‘rta Osiyo va Yaqin Sharq hamda O‘rta Sharq mamlakatlarida ishlab chiqariladigan dori-darmonlardan tashqari Hindiston, Xitoy, Yunoniston, Afrika, O‘rta dengiz atrofi va boshqa joylardan keltiriladigan ko‘plab dori va moddalarni ham qayd etgan[19]. Bu jarayon dorivor o‘simlik nomlarining leksik qatlam jihatidan har xilligini ta’minlagan. Abu Bakr Ar-Roziyning hukmdorlar uchun mo‘ljallangan “At-Tibb al-Mulukiy” (Podshohar tabobati) nomli asari mavjud bo‘lib, kasallarni dori ishlatmasdan, asosan, parhezli ovqatlar yordamida davolash usullari bayonida muallif dorivor o‘simlik nomlarini ham keltirib o‘tgan[20].

Dorivor o‘simlik nomlari fitonimlarga bag‘ishlangan tadqiqotlarda o‘rganilgan. N.Sh.Yagumova tadqiqotida ingliz va adigey botanika terminlari lug‘atidan to‘plangan 2120 (ingliz tiliga oid 1746 va adigey tiliga oid 374) fitonim tahlilga tortilgan. Tadqiqotda fitotoponimlarning kognitiv xususiyatlari ham yoritilgan[21]. Fitonimlarga bag‘ishlangan tadqiqotlarda o‘simlik nomlarining lingvokulturologik xususiyatlariga e’tibor qaratilgan. Xususan, Y.K. Aleshina fitonimlarni quyidagicha tavsiflagan: “Fitonomiyaning lingvistik tuzilishi, o‘simliklarni tasniflash usuli ayni bir madaniyat belgilari haqida deyarli mukammal tasavvur bera oladi”[22]. O. Vasilenko fitonimlar misolida semantik derivatsiya jarayonining kognitiv asoslariga to‘xtalgan. Semantik derivatsiyani konseptuallashtirishning bir ko‘rinishi, kognitiv jarayon sifatida baholagan. Kognitiv jarayonlar va semantik o‘zgarishlar o‘rtasidagi aloqadorlikni nafaqat so‘z ma’nolarini kategoriyalashtirish tizimi, balki nomlashdagi motivatsion-kognitiv belgilar bilan asoslagan[23]. O.G. Rubsova rus, mari, nemis va lotin tillaridagi fitonimlarni tadqiq qilgan. Dorivor o‘simliklar nomiga nisbatan *farmakofitonimik leksika* terminini qo‘llagan. Turli tizimga mansub tillardagi farmakofitonimik leksikaning nomlash tamoyillarini aniqlagan[24]. M.Velkovich rus tilidagi

[17] Холматов Х., Аҳмедов А. Фармакогнизия. 1-qism. –Т., 2008. – Б.13.
[18] Абу Али Ибн Сино. Ал-қонун фит-тиб. 1-жилд. – Т., 1993.-Б152.
[19] Абу Али Ибн Сино. Ko‘rsatilgan asar. – Т., 1993. – Б. 194.
[20] Абу Бакр Ар- Розий. Касалликлар тарихи. – Т.: Халқ мероси, 1994. – Б. 9.
[21] Ягумова Н.Ш. Фитонимическое пространство в языковой картине мира: словообразовательный и мотивационный аспекты (на материале английского и адигейского языков). Автореф. дисс. …канд. филол. наук. –Майкоп, 2008. – 26 с.
[22] Алешина Е. К. Исследование наименований растений и национальная языковая картина мира: к постановке проблемы // Вестник НГУ, 2009. – Том 8.
[23] Василенко О.И. Отфитонимическая семантическая деривация в современном литературных русском и английском языках. Автореф. ...дисс. канд. наук. – Екатеринбург, 2008. – 24 с.
[24] Рубцова О.Г. Названия лекарственных растений в разноструктурных языках (на материале русского, марийского, немецкого и латинского языков). Дисс. канд. филол. наук. – Йошкар-Ола, 2015. – 218 с.

fitonimlarni serb tili misolida lingvokulturologik va leksikografik aspektda tadqiq qilgan. Ishda lingvokulturologiyaga kognitiv lingvistikaning til va madaniyat aloqadorligini, bir-biriga ta’sirini o‘rganadigan bir tarmog‘i sifatida yondashilgan[25].

Xorijiy tilshunoslar tomonidan nazariy va amaliy yo‘nalishlarda tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, dorivor o‘simliklar, asosan, farmatsevtika terminologiyasi, fitonimlar doirasida tahlil etilgan.

§ 1.2. *O‘zbek va ingliz tilshunosligida dorivor o‘simlik nomlarining o‘rganilishi.* O‘zbek terminologiyasi taraqqiyotining ilmiy-nazariy masalalari va lug‘aviy birliklar tahlilida tizimli yondashuv tamoyillari S.Ibrohimov, X.Djamalxanov, S.Usmonov, S.Ashirboyev, H.Dadaboyev, H.Yodgorov, A.Madvaliyev, R.Doniyorov, R.Rasulov, A.Nurmonov, H.Ne’matov, R.Safarova, Sh.Iskandarova, A.Sobirov, I.Ermatov tadqiqotlarida yoritilgan [26] . Tibbiy terminologiya masalalari nazariy jihatdan ham bir nechta ilmiy ishlarda maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan. F.Qosimova dissertatsiyasida 5000 ga yaqin tibbiy terminlar o‘rtasidagi sinonimik, antonimik, giper-giponimik, partonimik, graduonimik munosabatlar qiyosiy-tipologik asosda yoritilgan [27] . Tibbiy terminlarni metaforik modellashtirishning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishda F.Abdulxairovaning tadqiqoti e’tiborga molik. Unda tibbiy termin-metaforalar o‘zbek tilida paydo bo‘lish davridan to hozirgi kunga qadar tadrijiy rivojlanish qonuniyatlari, boshqa tillar bilan munosabati va ekstralingvistik omillarning bu jarayonlarga bevosita ta’siri nuqtayi nazaridan o‘rganilgan [28] . N.Pazlitdinova tadqiqotida o‘simlik navlarining nomlanishiga asos bo‘lgan belgi-

[25] Велькович М. Фитонимы в русском языке: лингвокультурологический и лексикографический аспекты (на фоне сербского языка). Автореф. дисс. …канд. филол. наук. – СПб, 2022.

[26]Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. – Т.: ЎзФА, 1956. I. – 144 б.; Джамалханов Х. Из истории формирования и развития узбекской ботанической терминологии. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1966; Усмонов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. – Т.: Ўқитувчи, 1968; Аширбоев С. Ўзбек тили грамматик қурилишининг ўрганилиш тарихидан (1875-1917 йиллардаги рус туркологларининг асарлари асосида). Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 1972. – 24 б.; Дадабаев Х.А. Военная лексика в староузбекском языке. Дисс. … канд. филол. наук. – Т., 1981. – 186 с.; он же. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI – XIV вв. – Т., 1991. – 168 с.; шу муаллиф. Ўзбек терминологияси (Ўқув қўлланма). – Т.: Нодирабегим, 2020; Dadaboyev H., Yodgorov H. O‘zbek harbiy terminologiyasi. – T., 2021; Мадвалиев А.П. Узбекская химическая терминология и вопросы её нормализации. Автореф. ... канд. филол. наук. – Т., 1986; Данияров Р. Техническая терминология узбекского языка на современном этапе. Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Т., 1987. – 23 с.; Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. – Т., 1989; Нурмонов А. Лисоний белги хусусиятлари ҳақида. – Андижон, 1992; Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.; Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 48 б.; Искандарова Ш. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон асосида ўрганиш (шахс микромайдони). Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Т., 1999. – 24 б.; Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 2005. – 50 б.; Эрматов И.Р. Ўзбек тилшунослик терминларининг шаклланиши ва тараққиёти (умумий ўрта таълим мактабларининг дарсликлари асосида). Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Т., 2019. – 25 б.; шу муаллиф. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар (тилшунослик терминлари мисолида). Филол. фан. д-ри (DSc)... дисс. автореф. – Т., 2022. – 49 б.

[27] Қосимова Ф. Ўзбек-инглиз тиббий терминлари ва уларнинг лингвокультурологик тадқиқи. Филол. фан. фалс. док. (PhD) автореф. – Т., 2022. – Б.8.

[28] Абдулхаирова Ф. Ўзбек тилида тиббиёт атамаларининг метафорик манзараси. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Т., 2021.-Б17.

xususiyatlar izohlangan va bu yondashuvni o‘simlik nomlarining shakllanishidagi kognitiv omillar tahlili sifatida baholash mumkin[29].

Ingliz terminologiyasining shakllanishi, rivojlanishi ilmiy asosda tahlil etilgan. R.Arntz va H.Picht tadqiqotlarida terminlarning tushunarli bo‘lishi, sohaning asosiy tushunchalarini aks ettirishi lozimligi ta’kidlangan[30]. Ingliz tibbiy terminlari an‘anaviy tilshunoslik, sotsiolingvistika, korpus lingvistikasi, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika va boshqa yo‘nalishlar doirasida o‘rganilgan. S.Stepanova ingliz tilidagi onkologiya terminlarining semantik xususiyatlarini tadqiq qilgan[31]. Y.V.Bekisheva monografiyasida tibbiy terminlarni tasniflashda lingvokonseptual voqelikka (konseptual semantikaga) asoslanib ish ko‘rish samaradorligi birinchilardan bo‘lib ko‘rsatib berilgan[32].

Tadqiqotarda dorivor o‘simlik nomlarining integrativ xususiyati o‘zbek va ingliz tillari sohiblarining ijtimoiy-madaniy turmush tarzi, tafakkuri, fan sohalarining tarixiy taraqqiyoti, rivojlanish darajasi bilan bog‘liqligi asoslangan.

§ 1.3. *O‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlarining tarixiy-etimologik va lingvostatistik tahlili*. Dorivor o‘simlik nomlarining etimologik xususiyatlari kognitiv-semantik tahlillar orqali namoyon bo‘ladi. Terminlarning semantik taraqqiyoti so‘z semantik strukturasidagi o‘zgarishlar, ma‘lum bir semalarning yuzaga kelishi, semantik torayish va kengayishni ifodalaydi. Har bir termin kelib chiqish tarixiga ega. Dorivor o‘simliklar nomi ham lug‘aviy birlik sifatida o‘zining shakllanish jarayoni va etimologik tarixiga ega.

O‘zbek tili tarixida qadimgi sanskritcha, xitoycha, so‘g‘dcha o‘zlashmalar ham ishlatilgan. Hozirgi kunda bu so‘zlar deyarli qo‘llanmaydi. O‘zbek tilidagi dorivor o‘simlik nomlari turkiy, forscha-tojikcha, arabcha va rus-baynalmilal so‘zlaridan iborat. Dorivor o‘simlik nomlarining aksariyati o‘zbek tiliga rus tili orqali kirib kelgan, ruscha talaffuz va imlo me‘yorlari asosida o‘zlashgan.

Ingliz tilidagi dorivor o‘simlik nomlari lotin tili asosida shakllangan. Fransuzcha, nemischa so‘zlar ham kuzatiladi. Inglizcha terminlar nisbatan kam uchraydi.

O‘z qatlam so‘zlari asosida shakllangan dorivor o‘simlik nomlari axborot beribgina qolmay, dorivor o‘simlikning xususiyati, belgilari, qo‘llanishi haqida bilim hosil qiladi. Masalan, o‘zbek tilidagi *sachratqi, qichitqi, qo‘ziqorin* kabi o‘simlik nomlari til sohibi ongida o‘simlikning tashqi belgilari, o‘ziga xos xususiyatlari, qaysi kasallikka davo bo‘lishi haqidagi freymlarni yuzaga keltiradi.

Tadqiqotimiz davomida “Saydana” asaridan 72ta, “Al-qonun fit-tib” asaridan 102ta, “O‘rmon dorivor o‘simliklari” kitobidan 20ta, “Tabiiy dorivor o‘simliklar”dan 19ta, “O‘zbekiston dorivor o‘simliklari atlasi”dan 25ta hamda “Encyclopedia of Herbal medicine” qomusidan 107ta – jami 345ta dorivor o‘simlik nomi tanlab olinib, tahlilga tortildi.

---

[29] Пазлитдинова Н. З. Ўзбек тили фитонимларининг лексик-семантик хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD). ...дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – Б.10.

[30] Arntz R., Picht H. Einfuhrung in die Terminologiearbeit. – New York, 1989.

[31]Степанова. Е.С. Типологические особенности онкологической терминологии в современном английском языке. – СГМУ, 2015. – № 17.

[32] Bakisheva E.V. Linguoconceptual analysis of medical classifications / Abstracts the 13th European Symposium on Language of Special Purposes. – Vaasa, 2001. – 107 p.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘zbek va ingliz tillarida dorivor o‘simlik nomlari shakllanishining kognitiv omillari va tamoyillari”** deb nomlangan.

§ 2.1. *O‘zbek va ingliz tillarida shaxs freymi asosida shakllangan dorivor o‘simlik nomlari*. Dorivor o‘simlik nomlarining leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilingan ayrim tadqiqotlarda nomlanish motivatsiyasi va lingvokognitiv xususiyatlariga oid fikr-mulohazalar bildirilgan[33]. M.Xoshimxudjaeva antroponim tarkibli fitonimlarni uch guruhga ajratib tahlil qilgan: diniy arboblar ismlari; mifologik qahramonlar ismi; tipik ismlar[34].

Ingliz atropomorfizmlarida *o‘simlik → shaxs* kognitiv modeli ustunlik qiladi. Bu tafakkur modeliga ko‘ra “o‘simliklar o‘zga qiyofaga kirgan insonlardir”. Ilohiy timsollar, diniy qahramonlar, mifologik obrazlar ham shaxs qiyofasida tasvirlanadi. Dunyo madaniyatida ruhning abadiyligi, boshqa tanaga ko‘chishi haqidagi qarash umuminsoniy qadriyat hisoblanadi. Ammo madaniyatlar ruhning nimaga aylanishini idrok qilishlari jihatidan farqlanadi. Insonning vafotidan keyin ruhning boshqa narsalarga, qushlarga, kapalaklarga ko‘chishi haqidagi qarashlar qadim davrlardan hozirga qadar yashab kelmoqda. Ingliz madaniyatida, boshqa xristianlarda bo‘lgani kabi insonning gulga, o‘simlikka aylanishi haqidagi qarash mavjud.

Ingliz tilidagi dorivor o‘simlik nomlaridagi diniy antropomorfizm quyidagi kognitiv modellarga asoslanadi: *o‘simlik → ilohiy timsol, o‘simlik → ilohiy timsol somasi, o‘simlik → ilohiy timsol ashyosi, o‘simlik →ilohiy timsol makoni* kognitiv modellari.

Ingliz dorivor o‘simlik nomlaridagi antropomorfizmlarda ilohiy timsollarning belgilari, tana a’zolari, ashyolari, makoni motivatsion-nominatsion asos vazifasini bajargan.

§ 2.2. *O‘zbek va ingliz tillarida ko‘rinish va o‘xsahtish freymi asosida shakllangan dorivor o‘simlik nomlari*. Dorivor o‘simlik nomlarining shakllanishida ko‘rinish freymiga oid rang, shakl, tuzilish, hajm slotlari motivatsion-nominativ asos vazifasini bajargan. Tibbiyotda kasallik, dorivor o‘simliklarning rang bilan bog‘liq nomlari ko‘p uchraydi. *Bo‘yimadaron* o‘simligi ingliz tilida “bahorgi qor parchasi guli” ma‘nosida *milfoil* nomi bilan ataladi. *Lamium* – oq yasnotka ingliz tilida *white dead nettle* (white “oq”, dead “o‘lim” nettle “qichitqi o‘t”) nomini olgan; mantiqan “oq o‘lim keltiradigan qichitqi o‘t” ma’nosini anglatadi.

Oq so‘zi turli xil tillarning fitonimlarida asosiy funksional vazifani bajaradi. Bu esa ranglarning mental xususiyati, til sohibining idroki, qabul qilish darajasi, freym tarkibi bilan belgilanadi.

Ko‘rinish belgisi o‘simlikning strukturaviy xususiyatlari va tashqi tuzilishining xarakterli belgilariga asoslanadi. Masalan, *xolli kassiya* o‘simligi bargi uchli – o‘tkir bo‘lgani sababli shunday nomlangan: *cassia acutifolia* –

[33] Погорелова Е. С. Этимология названий лекарственных растений // Молодой ученый. – 2015. – № 1 (81). – С. 531-533; Раздорская О.В. Этимологический анализ фармацевтической лексики в английском и русском языках. Ученые записки Орловского государственного университета. Серия: Гуманитарные и социальные науки, 4 (81), 2018. – С. 184-187; Пазлитдинова Н. З. Ўзбек тили фитонимларининг лексик-семантик хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD). ...дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – Б.16.

[34] Хошимхуджаева М.М. Мотивологический анализ английских, русских и узбекских фитонимов с компонентом-антропонимом // Проблемы истории, филологии, культуры. 1, 2017. – С. 371.

lotincha *acute* “o‘tkir”, *folia* “barg”; ingliz tilida ham lotin tilidagi nomi ishlatiladi. *Zveraboy* (Hypericum perforatum – *St. John's wort*) o‘simligi tashqi tuzilishining o‘ziga xosligi nomida aks etgan – barglarida ko‘plab mayda dog‘lari bor. Shu tufayli teshikchalar bordek ko‘rinadi. Lotincha “perforatum” asosidan yuzaga kelgan, “teshilgan”, ya’ni “ko‘p teshiklari bor”, degan ma’noni anglatadi.

O‘zbek va ingliz tillarida o‘xshatishlar asosida hosil qilingan dorivor o‘simlik nomlari ham mavjud: o‘zbek tilida *qo‘ziqorin, bo‘takoz, toshtikon;* ingliz tilida *foxtail millet* “tariq”, *fox tail “*tulki dumi”.

O‘xshatishlar ko‘rish sezgisi asosida idrok etiladi. O‘xhatilayotgan narsa-buyum (dorivor o‘simlik) til sohibiga boshqa figurani yoki shaklni eslatishiga ko‘ra, tafakkurida idrok etilishiga asosan yuz beradi. Bir xil denotat o‘zbek va ingliz tili sohibi ongida ikki xil proyeksiyaladi: P_1 va P_2. O‘xshatishning mental strukturasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

A → A1 (o‘zbek tilida)

A → A2 (ingliz tilida)

Masalan, *colts foot* “xo‘tik oyog‘i” o‘zbek tilida *qirqbo‘g‘im* deb yuritiladi. Ingliz xalqi o‘simlikni hayvon tana a’zosiga o‘xshashligiga ko‘ra nomlagan. O‘zbek xalqi o‘simlikning ko‘p bo‘g‘imdan iborat ko‘rinishiga asoslangan. *Qirqbo‘g‘im* ingliz tilida *horse-tail* n. (*equisetum*) deb ham yuritiladi[35].

Arslon quyruq nomlovchi ongidagi arslon, uning quyrug‘i (dumi) haqidagi bilimlarga asoslangan. *Bearwood, buckthorn* “ayiq yog‘ochi”, “katta tikon”, “frangula po‘stlog‘i” (ilmiy tilda: Frangula) atamasi ayiq (*bear*), kiyik *(buck)* kabi jonzotlarning “kattalik”, ya’ni hajm belgisiga asoslangan. *Tirnoqgul (*Calendula officinalis L) nomida shakl belgisi e’tiborga olingan.

O‘zbek tilida muayyan tajriba asosidagi o‘xshashlik ham kuzatiladi. Masalan, *qo‘ziqorin* o‘xshatishi qo‘zining qornidagi shakl, yumshoqlik belgilariga ko‘ra yuzaga kelgan.

Ingliz tilida insonning holatini “o‘simlik” tushunchasi bilan aloqadorlikda ifodalaydigan o‘xshatishlar mavjud: *like a squeezed lemon* “siqilgan limon kabi – juda charchagan odam”.

O‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlaridagi o‘xshatishlar har ikki tilning farqli ijtimoiy- madaniy belgilarini ifodalash omili sifatida qaralishi mumkin. Shakl, ko‘rinish asosidagi o‘xshatish har ikki madaniyatda ham mavjud, ammo o‘zbek va ingliz madaniyati o‘xshatish etalonlari bilan farqlanadi.

O‘zbek tilidagi dorivor o‘simlik nomlarida shakl, ko‘rinish o‘xshashligidan tashqari belgi-xususiyat va tajriba asosidagi o‘xshatishlar ham o‘z ifodasini topgan.

[35]Худойкулова Д.К. Фармацевтик терминлар, луғат ва муаммолар // БухДУ илмий ахборотномаси. – Бухоро, 2011. – № 2 (42). – Б. 67-69.

§ 2.3. *O‘zbek va ingliz tillarida belgi-xususiyat va makon freymi asosida shakllangan dorivor o‘simlik nomlari.* Dorivor o‘simlik nomlari bir qarashda ko‘zga tashlanmaydigan belgi-xususiyat, o‘simlik unadigan joy, makon asosida ham shakllangan.

Dorivor o‘simliklarning umumiy belgi-xususiyati nomlarda o‘z ifodasini topgan. Masalan, *Tabib* so‘zining turkiy muqobili dorivor o‘simliklarning davolash xususiyatiga asoslangan. Mahmud Koshg‘ariy davrida tabib *otačï* deb nomlangan (DLT, I, 188). *Ot* leksemasi aslida “dorivor o‘simlik” tushunchasini umumlashtirib ifodalovchi lug‘aviy birlik bo‘lib, semantik taraqqiyot natijasida metonimiya hodisasi asosida “dori” ma’nosini anglatgan. “Devon”da *ot* so‘zi ikki ma’noda qayd etilgan: “dori, davo”; *ot ičtim* – dori ichdim; 2) “og‘u, zahar”: *Beg aŋar ot berdi* – Bek unga zahar berdi (DLT,I,71). Til sohibi ongida *ot* freymidan quyidagi idrok bosqichlari asosida “dori” ma’nosidagi freym yuzaga kelgan:

1. Slot: o‘simlik (yashillik, rivojlanuvchi, tirik organizm, ozuqa).
2. Slot: shifobaxshlik (quvvat, shifo, tuzalish).
3. Slot: dori (ichimlik, surgi, bog‘lam, sepki (sepiladigan).

Ot so‘ziga -či qo‘shimchasini qo‘shish orqali “davolovchi”, “tabib” ma’nosidagi *otačï* termini hosil bo‘lgan. *Otačï* “giyohlar bilan davolovchi tabib” ma’nosini anglatadi (DLT, I, 187).

Otačï freymining idrok bosqichlari:

1. Slot: giyoh bilan davolovchi – *ot* (giyoh)lar xususiyatini yaxshi biluvchi (ajdodlaridan, kitobdan, amalda sinash orqali).
2. Slot: tayyorlovchi (malham, surtma, kukun, qoq, quritilgan).
3. Slot: qo‘llovchi (ichish, surtish, bog‘lash, sepish).

O‘simliklarni nomlashda ularning xos belgisi ham hisobga olingan. Masalan, ingliz tilida *fig* “fruit without a flower”, ya’ni “gulsiz meva” – anjir o‘simliklarda kamdan kam kuzatiladigan belgisiga ko‘ra nomlangan. *Altey* eramizdan avvalgi IX asrdan beri ishlatilib kelmoqda. Ingliz tilida *Altai Tea* (altai “eski”; tea “choy”) nomi bilan mashhur. *Altey* “shilimshiq”, “kuchli darajada shilimshiq” degan ma’noni angalatadi. Bunday nomlanishiga sabab o‘simlik ildizining infuzioni shilliq suyuqlikdan iborat ekanligidir. Ingliz tilidagi *slime root* dorivor o‘simligining nomlanishi ham shu belgiga asoslangan. *Slime root* so‘zma-so‘z tarjima qilinganda “shilimshiq ildiz” degan ma’noni ifodalaydi.

O‘simliklar nomi ular o‘sadigan joy relyefi, xususiyatlariga bevosita bog‘liqdir. Masalan, o‘simlikning ekologik sharoitlardan kelib chiqqan holda nomlanishi tog‘ o‘tloqlarida o‘sadigan *Arnica montana* “tog‘ arnikasi” nomida aks etgan. O‘simlikning daryo va ko‘llarning botqoq qirg‘og‘ida o‘sishi *Gnaphalium* uliginosum “botqoq o‘ti” nomida o‘z aksini topgan. *Helichrysum arenarium* “qumli o‘lmas” nomi giyoh o‘sadigan makon haqida axborot beradi. “O‘lmas” ma’nosidagi nom o‘simlikning quruq qumli tuproqlarda ham ildiz olishi va rivojlanishiga asoslangan.

Joy nomi, makon omili asosida shakllangan nomlardan ba’zilari kalkalash usulida yuzaga kelgan: *Yevropa zaytuni* – Olea europea, *Turkiston adonisi* – Adonis turkestanica adolf, *Sanmarqand bo‘znochi – helichrisum maracandicum* M.Pop. Asosiy qismi xalqning tajribasiga asoslangan: *makkajo‘xori* – Zea mays L.,

oddiy tog‘rayhon – origanum vulgare L. *tog‘jambil* – Thumus L., *qumloq bo‘znochi* – Sandy Everlasting, ilmiy tilda: Helichrysum arenarium.

Ingliz tiliga lotin tilidan o‘zlashgan *ferula* o‘simligi o‘zbek tiliga “Eron kavragi” deb olingan.

Ayrim dorivor o‘simlik nomlari qorishiq omillarga asoslangan. *Qizilmiya, shirinmiya (Glycyrrhiza L.)* deb yuritiladigan o‘simlik nomi ham rangiga, ham mazasiga ko‘ra nomlangan.

§ 2.4. *O‘zbek va ingliz tillarida davolash freymi asosida shakllangan dorivor o‘simlik nomlari.* Dorivor o‘simlik nomlarini ikki xil tasniflash mumkin: 1) ta’sir qiluvchi moddalarning tarkibiga qarab aniqlanadigan o‘simllik nomlari – *alkaloidli, glikozidli, efir moyli, vitaminli* va boshqalar; 2) farmakologik ko‘rsatkichlariga qarab aniqlanadigan o‘simllik nomlari – tinchlantiruvchi, og‘riq qoldiruvchi, uxlatuvchi, yurak-tomir tizimiga ta’sir qiluvchi, markaziy nerv sistemasini qo‘zg‘atuvchi, qon bosimini pasaytiruvchi va boshqalar[36].

XVIII asrning o‘rtalaridan beri qo‘llangan lotincha *orīganum* / Oregano o‘zbek tilida *marzanjo‘sh* deb yuritiladi. Ingliz tilida *sweet marjoram* “zaytun – yashil barglari”ga nisbatan ham qo‘llanadi, bu *oreganoning diaforetik* giyohining choy tarkibiga kirishi va choy o‘rnini bosuvchi sifatida ishlatilishi bilan bog‘liqdir. *Oreganon*ing qaynatmasi va damlamasi aromatik fitovannalar, tanadagi yaralar va toshmalar uchun davo sifatida ishlatiladi. Shu bois dorivor o‘simlik *Herbs for baths* (ingliz tilida: *herbs* “o‘t”, *baths* “vanna”) deb nomlangan.

O‘zbek xalqida o‘simliklarning ko‘z bilan ilg‘ash qiyin bo‘lgan belgilari asosida nomlash kuzatiladi: *odamgiyoh.* Bu tarzda nomlashda dorivor o‘simlikning inson hayoti uchun muhim bo‘lgan xususiyatlarini, tiriklik uchun zarurligini anglash kognitiv belgilari aks etadi. Odamgiyoh – jenshen tindirmasi organizmni umumiy quvvatlovchi ta’sirga ega. O‘zbek tilida *hayot ildizi* tasviriy ifodasi bilan ham nomlanadi. Mazkur o‘simlikning *hayot ramzi* sifatidagi tasviriy ifoda bilan nomlanishi ham shuni ko‘rsatadi.

Maydagulli tog‘rayhon – ing. *origanum tytthanthum gontsch,* mayda qirqilgan bargli ferula – ing. *ferula tenuicectha* nomlari o‘zbek xalqining sinchkovligini ko‘rsatadi. Gangituvchi bozulbang – ing. *logochilus inebrians Rgl* kabi nomlar til sohibining kuzatuvchanligini namoyon qiladi. *Dala sovun o‘ti* – ing. anagallis / Kuroslep (ilmiy tilda: A nagallis arvensis L; dori nomi: Anagallis xalqning ko‘p yillik tajribasi va kuzatishi asosida nomlangan.

O‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlarining shakllanishida ko‘rinish freymi asosidagi kognitiv omilning umumiy belgilarni aks ettirgani ma’lum bo‘ldi. Tashqi belgilar va rang asosida nomlash dorivor o‘simlik nomlarining shakllanishida o‘zbek tili hamda ingliz tili sohiblarining o‘xshash yondashuvini ifoda etadi.

Belgi-xususiyat, davolash freymi asosidagi kognitiv omilda o‘zbek va ingliz tili sohiblarining har xil tafakkur tarzi orqali yondashilgani namoyon bo‘ldi. Ayrim hollarda o‘zbek va ingliz tillari dorivor o‘simlik nomlari shakllanishining kognitiv omillariga ko‘ra farqlanadi. Xususan, shaxs freymi asosida nomlash ingliz

[36] Mirjonov N.N. Shifobaxsh o‘simlik nomlarining lingvistik xususiyatlari. ISSUE 2. – T., 2022. – Б. 27-36.

madaniyatiga xos bo‘lib, o‘zbek tilida deyarli uchramadi. Dorivor o‘simliklarning jonzot freymi asosida nomlanishi o‘zbek mentalitetiga xos bo‘lib, ingliz madaniyatida kam kuzatiladi.

O‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlarining shakllanishida quyidagi kognitiv tamoyillarga asoslanilgan:


1. Ko‘rish orqali bilish tamoyili.
2. Kuzatish orqali anglash tamoyili.
3. Milliy-madaniy, mentallik tamoyili.

Ko‘rinish freymi omilidagi nomlashda ko‘rish orqali bilish tamoyiliga, belgi-xususiyat, davolash freymi orqali nomlashda kuzatish orqali anglash tamoyiliga, shaxs va jonzot freymi asosida nomlashda milliy-madaniy, mentallik tamoyiliga asoslanilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlarining kognitiv maydon va kognitiv belgi asosidagi tahlili”**ga bag‘ishlangan.

§ 3.1. *O‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlarining kognitiv maydondagi o‘rni.* O‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlarining kognitiv maydon asosidagi tahlili ularning qo‘llanish darajasiga asoslanadi. Dorivor o‘simlik freymidagi *ildiz (root), o‘sish (growth), davo (treatment), dori (medicine)* freymlari kognitiv maydonning yadrosini tashkil etadi.

O‘zbek tilidagi dorivor o‘simlik nomlari kognitiv maydonida *isiriq, moychechak, zira, zubturum, kiyik o‘ti, dolchin, za’faron* markaziy qismni egallaydi. Ingliz tilidagi dorivor o‘simlik nomlari kognitiv maydonida *fig “*anjir”, *chammomile “*moychechak”*, mentha “*yalpiz”*, mistletoe “*oq omeliya”, *inula “*qora andiz”*, common horse chestnut “*soxta kashtan”, *oregano “*tog‘ rayhon”, *olive “*zaytun”*, yarrow “*bo‘yimodaron”*, purslane “*semiz o‘t” kabilar markazda joylashadi. Dorivor o‘simliklar tabiiy, quritilgan, suyuq, kukun, surtma holda qo‘llanadi. Texnologiya taraqqiyoti natijasida dorivor o‘simliklardan qog‘oz ko‘rinishida ham foydalanilmoqda. Bambuk salfetkalari bunga misol bo‘la oladi. Kognitiv maydonning yaqin chekka va uzoq chekka qismlaridan qo‘llanish darajasi nofaol va kam qo‘llanadigan dorivor o‘simlik nomlari joy oladi.



3.1-rasm. O‘zbek tilidagi dorivor o‘simliklarning kognitiv maydondagi o‘rni.

Dorivor o‘simliklar choy holatida iste’mol qilingani uchun *choy* tushunchasi nomlash kognitiv maydonida ishtirok etadi. Masalan, *John's wort* (dalachoy) deb nomlanadi.

Ingliz tili sohibi kognitiv maydonida dorivor o‘simliklar nomining xalq tilida qo‘llanish shakli bilan ilmiy tildagi nomlanishi ko‘p hollarda muvofiq keladi. Bu esa terminlar mazmunining faol o‘zlashtirilishiga omil bo‘ladi. O‘simlik nomlarining ilmiy uslubdagi ko‘rinishlari ham ingliz yoki lotin asosda bo‘lib, ingliz tili sohibi tomonidan oson qabul qilinadi.

O‘zbek tili sohibi kognitiv maydonida dorivor o‘simliklarning xalqaro inglizcha, lotincha yoki ruscha nomlari faol qo‘llanadi: *romashka, zveroboy, krapiva, myata, jenshen.* Keyingi yillarda, ayniqsa, kovid pandemiyasidan keyin *isiriq, qora sedana, qizilmiya, qariqiz* nomlari faollashdi. Bu o‘rinda dori mahsulotlari reklamasi alohida o‘rin tutadi. Dorivor o‘simlik nomlarining tez-tez takrorlanishi ularning qo‘llanish chastotasini oshiradi va til sohibi kognitiv maydonining markaziy qismidan o‘rin egallashini ta’minlaydi.

O‘zbek tilidagi dorivor o‘simliklarning xalq tilidagi nomlanishi bilan ilmiy tildagi varianti aksariyat hollarda mos kelmaydi. Bu esa xalq dorivor o‘simliklar nomining unutilishiga va iste’moldan chiqishiga olib keladi. Mahmud Koshg‘ariy davridagi ayrim dorivor o‘simlik nomlarining hozirda kam qo‘llanishi, deyarli ishlatilmasligi fikrimizga asos bo‘la oladi. Dorivor o‘simlik nomlarining xalq tilidagi muqobillarini saqlab qolish, ommalashtirish, ilmiy tilga olib kirish o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirishda, terminlarning lug‘aviy birlik sifatidagi kognitiv-semantik jihatlarini yoritishda, mazmunini va dorivor o‘simlik xususiyatlarini o‘zlashtirishda ahamiyatlidir.

Ingliz, rus tillarida dorivor o‘simlik nomlarining terminologik tizimi antroposentrik paradigma asosida tadqiq etilmoqda. Etimologik lug‘atlar o‘simlik nomlari shakllanishining motivatsion-kognitiv asoslarini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

O‘zbek tilshunosligida dorivor o‘simlik nomlari lug‘ati yaratilmagan. Mavjud lug‘atlar terminologik xarakterda bo‘lib, lug‘aviy birlik etimologiyasi, semantikasi to‘liq ochib berilmagan. Dorivor o‘simlik nomlari lug‘atini yaratish, nominatsion birliklarni izohlashda kognitiv nuqtayi nazardan yondashish o‘simlik xususiyatlarini keng yoyishda, til sohiblarida ulardan foydalanish yuzasidan bilim hosil qilishda amaliy ahamiyatga ega.

§ 3.2. *O‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlari kognitiv belgilarining tasviriy ifodalar va frazemalarni shakllantirishdagi motivatsion-nominatsion funksiyasi*. O‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlari insonning kundalik faoliyati, davo choralarini ko‘rishi natijasidagina emas, balki muntazam ravishda qo‘llanuvchi tasviriy ifodalar, barqaror birikmalar tarkibida uchrashi bilan ham xotirada saqlanadi.

Ingliz tilidagi perifrazalarda dorivor o‘simliklarning qaysi tana a’zosidagi kasallikka davo bo‘lishi ham nazarda tutilgan: *medunitsa* – medunitsiya o‘simligi *o‘pka malhami.* Dorivor o‘simliklar ilohiylashtirilgan, mif, afsonalarga asoslanilgan: *Marys tears* (Maryamning ko‘z yoshlari) yoki *Our Ladys milk drops* (xonimning sut tomchilari).

Perifrazalarda dorivor o‘simliklar dori nomi bilan atalgan. Ingliz tilida moychechak *herbal aspirin* “aspirin giyohi” perifrazasi bilan ifodalanadi: *Described as “herbal aspirin”, chamomile is one of the leading herbal remedies worldwide*[37] / “Aspirin giyohi” deb nomlanuvchi moychechak butun dunyo bo‘ylab eng mashhur dorivor o‘simliklardan biri hisoblanadi. Moychechak dori vositasi bo‘lib, bosh og‘riqlari va turli og‘riqlarga davodir. Moychechak ham xuddi shu dori xususiyatiga ega bo‘lgani sababli, uni *natures aspirin “*tabiiy *aspirin”* deb atashadi[38]. Bu nom til sohibining avval dori xususiyatini, keyin esa giyoh xususiytini o‘zlashtirganini ko‘rsatadi.

Ingliz tilida dorivor o‘simliklarning perifrazalar bilan ifodalanishi faol kuzatiladi. Perifrazalar dori nomlariga nisbatan ikkilamchi nominatsiya funksiyasini bajaradi. O‘simlikning xususiyatlari, eng faol kognitiv belgilari haqida axborot beradi.

Dorivor o‘simlik nomlari frazeologik birliklar tarkibida ham kommunikativ, emotsional-ekspressiv funksiya bajaradi.

Aksiologik (qiymat) mezonlarga ko‘ra fitonimlarning konnotativ ma’nolari meliorativ, peyorativ va neytralga bo‘lingan[39]. Ingliz tilidagi frazeologik birliklarda dorivor o‘simlik nomlarining meliorativ, peyorativ va neytral kognitiv belgilari to‘liq namoyon bo‘ladi. Masalan, fig (anjir) – “qiymatsizlik”: Ingliz madaniyatida anjir til sohibining salbiy bahosini aks ettirib, peyorativ xususiyat kasb etgan: *Not worth a fig* “bir tiyinga qimmat”, “umuman qimmatga ega emas, hech narsaga arzimaydi” degan ma’noni ifodalaydi. *Loviya* ham meliorativ, ham peyorativ bahoni aks ettirgan. Masalan, *Full of beans* frazeologik birikmasi so‘zma-so‘z “loviyaga to‘la” degan tushunchani ifodalab, “juda faol, baquvvat, quvnoq” degan ko‘chma ma’noda qo‘llanadi. Bu o‘rinda *beans* (loviya, dukkakli) “qiymatlilik” kognitiv belgisiga ega bo‘lib, meliorativ bahoni ifodalagan. *Give smb beans* frazeologik birligida “kimgadur loviya berish” tushunchasi ifodalanib, barqaror birikma “kimnidir xafa qilmoq” peyorativ bahosini aks ettiradi. Bu o‘rinda *beans* (loviya) – “yomonlik” kognitiv belgisiga ega. O‘zbek tilida *gul, olma, anor* kabilar meliorativ xususiyatga ega bo‘lsa, *tikon, yantoq, qovoq* peyorativ baho munosabatini ifodalaydi: *Tikansiz gul bo‘lmas, mashaqqatsiz – hunar*; *Yantoqdan atir chiqmas, Ahmoqdan botir*. *Bir yil tut ekkan kishi yuz yil gavhar teradi* maqolida tut mevasi gavharga qiyoslangan. Bu o‘rinda til sohibining ko‘rish sezgisi asosidagi idroki ham aks etgan. Oq tut gavharga (durga) qiyoslangan. Tutning shifobaxshlik xususiyati ham qimmatbaho toshga nisbat berish orqali ifodalangan.

Ingliz tilida: While there is no wind, the branches of the tree do not move (folk saying) / Shamol bo‘lmaguncha, daraxt shoxi qimirlamaydi. O‘zbek tilida: *Shamol bo‘lmasa, daraxt uchi qimirlamaydi.* Har ikki tilda “tagida asosi bor voqelikka yoki gap”ga qaratilgan barqaror birikma denotati bir- xil: daraxt. Lekin

[37] Maznev N. I. Encyclopedia of medicinal plants. 3rd ed., corr. and add. Moscow: Martin, 2022.-p.560

[38] Komilov I. The phenomenon of medicine in the cultural horizon: the theoretical basis of analysis and ethno-cultural specification. Tomsk: IAA SB RAS Publishers, 2022

[39] Mirjonov N. N. Shifobaxsh o‘simlik nomlarining lingvistik xususiyatlari. Scientific progress, 2022. 3 (2). – C. 214-223.

uning til sohibi tomonidan ajratilgan qismlari har xil. Inglizlarda daraxt shoxi – qimirlash sodir bo‘ladigan qism sifatida olingan bo‘lsa, o‘zbek tilida daraxtning uch qismi ta’sir nuqtasi, deb qaralgan.

“*Shake like a leaf*” frazeologik birligi bir nechta sinonimlariga ega: to tremble *like a leaf; to tremble like an aspen; to tremble in every limb* va o‘zbek tiliga quydagicha tarjima qilinadi “bargdek titramoq”, “barg kabi silkit”, aspen kabi qaltiramoq, “har bir a’zosi titramoq” – “qo‘rquvni boshdan kechirish, qo‘rqish, tom ma’noda qo‘rquv yoki dahshatdan o‘zini yoqotish” ma’nosi bilan reallashadi. Bu xulosa shamolda titrayotgan tog‘terak barglarini kuzatish asosida paydo bo‘lgan.

“O‘simlik” tushunchasi asosida shakllangan frazeologik birliklar o‘zbek va ingliz tillarida ko‘p, biroq ularning leksik ma’nosi va kognitiv xususiyatlari bir-biridan farqlanadi.

Sodda so‘z, qo‘shma so‘z, so‘z birikmasi ko‘rinishidagi nomlar dorivor o‘simlikning belgi-xususiyatlari, ko‘rinishi haqida aniq axborot beradi. Ulardan davo maqsadida foydalanishda yordam beradi. Tasviriy ifoda xarakteridagi nomlar dorivor o‘simlikni qo‘llashda asos bo‘lish bilan birga, til sohibinining bahosi, munosabati, madaniy qarashlarini aks ettiradi.

§ 3.3. *O‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlikdan tayyorlangan dori nomlarining kognitiv belgilari*. Dorivor o‘simliklardan ikki xil dori vositalari tayyorlanadi. Ularning nomlanishi ham farq qiladi: 1. Dorivor o‘simlikning o‘zidan tayyorlanadigan dori mahsulotlari nomlari. 2. Dorivor o‘simlikning boshqa dorivor o‘simlik yoki kimyoviy moddalar bilan aralashmasidan tayyorlangan dori vositalari nomlari.

Dorivor o‘simliklardan tayyorlangan dori vositalari nomlanishida uch xil kognitiv munosabat namoyon bo‘ladi:

a) aynan o‘simlik nomi bilan yuritiladigan dori mahsulotlari. Preparat nomi bevosita o‘simlik nomiga va undan olingan dori shakliga ishora qiladi: *evkatol* – dorivor preparat, *evka* – *eucalyptus* (ingl.) → evkalipt, *tol* – odatda *oil* (moy). O‘zbek tilida: *achchiqmiya, chuchukmiya, zubturum, sachratqi, shuvoq, yantoq, qizilcha, qoqio‘t* kabi. Bunda metonimik nomlash kuzatiladi;

b) o‘simlik davo bo‘ladigan kasalliklar motivatsiyasi asosidagi nomlar. Dori vositalari nomida qaysi kasallikka davo bo‘lishi o‘z aksini topadi. Bunda dorivor o‘simlikning davolash xususiyati motivatsion-nominativ asos vazifasini bajaradi. Dori vositalari nomi bevosita kasallikka ishora qiladi. Masalan, bangidevonadan tayyorlanadigan *astmatol va astmatin* (O‘DO‘,108) preparatlari nomida bronxial astma (nafas qisishi, og‘ir yo‘tal) kasalligida davo bo‘lishiga ishora mavjud;

d) kasallangan tana a’zosiga ishora qiladigan nomlar. O‘simlik nomi dori mahsulotining qaysi tana a’zosi uchun mo‘ljallanganini bildiradi: *pektussin* “ko‘krak uchun mo‘ljallangan dori”: *pectus* – lot. “ko‘krak”, *sin* – dori.

“Dorivor o‘simlik”, “giyoh” freymlari til sohibi ongida “tabiiy”, “zararsiz”, “foydali”, “kam chiqim” tushunchalari bilan namoyon bo‘ladi.

XULOSA

1. Jahon tilshunosligida dorivor o‘simlik nomlari tibbiyot, biologiya, farmatsevtika sohalariga oid, shuningdek, fitonimlarga bag‘ishlangan tadqiqotlar doirasida tahlil etilgan. Dorivor o‘simlik nomlarining leksik-semantik, struktur-morfologik xususiyatlari yoritilgan. Fitonimlarning motivatsion-nominatsion asoslariga bag‘ishlangan tadqiqotlar dorivor o‘simliklar nomini lingvokognitiv jihatdan o‘rganishda nazariy-metodologik asos vazifasini bajaradi.

O‘zbek tilshunosligida dorivor o‘simlik nomlari, asosan, tibbiyot, biologiya yo‘nalishidagi tadqiqotlarda tahlil etilgan. Fitonimlarning leksik-semantik xususiyatlariga oid izlanishlarda o‘simliklar nomining motivatsion belgilari ham qayd qilingan.

2. Jahon tilshunosligidagi tadqiqotlar tahlili ingliz tili dorivor o‘simliklar terminologiyasi qadimgi lotin, yunon va grek tillari asosida shakllanganligi, hozirgi kunda faol qo‘llanayotgan lotin, ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan va boshqa tillardan o‘zlashtirilgan so‘zlar asosida boyib borayotganligini ko‘rsatdi.

3. Ingliz tilidagi dorivor o‘simlik nomlari tilning xalqaro darajasiga ko‘ra hamda dorivor o‘simliklar terminologiyasining lotin va grek tiliga asoslanganligi bois o‘zbek tili terminlariga nisbatan keng tarqalgan. O‘zbek tilidagi dorivor o‘simlik nomlari kognitiv maydonidagi birliklar o‘z va o‘zlashgan qatlam kognitiv belgilariga ega. O‘zbek tilidagi dorivor o‘simlik nomlari semantik maydoni qadimgi sanskritcha, xitoycha, so‘g‘dcha o‘zlashmalar, turkiy, forscha-tojikcha, arabcha va rus-baynalmilal so‘zlaridan iborat. Rus-baynalmilal o‘zlashmalar vositachi til fonetik qoidalari va imlo me’yorlariga bo‘ysungan holda ishlatiladi.

4. O‘z qatlam so‘zlari asosida shakllangan dorivor o‘simlik nomlari axborot berishdan tashqari kognitiv funksiya bajaradi, ya’ni til sohibi ongida o‘simlikning qanday xususiyatga ega ekanligi va qanday kasallikka davo bo‘lishi haqidagi freymni hosil qiladi.

O‘zbek va ingliz tillarida dorivor o‘simlik nomlari shakllanishining kognitiv omillari mavjud bo‘lib, qo‘llanish darajasi faol terminlarning shaxs, ko‘rinish, o‘xshatish, belgi-xususiyat, davolash freymlari asosida shakllangani aniqlandi.

5. O‘simliklarning nomlanishi xalqning kuzatuvi, kundalik turmush tarzi va tafakkuri, tajribasi, bilimi bilan bog‘liq ravishda shakllangan. Dorivor o‘simlik nomlarining ko‘rinish freymi, tashqi belgilar va rang asosida shakllanishi jihatidan o‘zbek hamda ingliz tillarida umumiylik mavjud. Dorivor o‘simlik nomlarining o‘xshatish, belgi-xususiyat, davolash freymi asosida shakllanishi o‘zbek va ingliz tili sohiblarining mental-madaniy munosabatlaridagi farqlarni ifoda etadi. Shaxs freymi asosida nomlash ingliz madaniyatiga xos bo‘lib, o‘zbek tilida uchramaydi.

Dorivor o‘simliklarning shaxs freymi asosida nomlanishi diniy arboblar, mifologik qahramonlar, tipik ismlar motivatsion belgilariga asoslangan. Shaxs freymi asosida nomlash *o‘simlik → shaxs; o‘simlik → shaxs somasi; o‘simlik → shaxs ashyosi, o‘simlik → shaxs kiyimi; o‘simlik → shaxs makoni* kognitiv modellariga ko‘ra shakllangan.

6. Dorivor o‘simliklarning hayvon freymi va uning belgilariga o‘xshatish asosida nomlanishi o‘zbek mentalitetida ko‘p uchraydi. O‘zbek xalqida o‘simliklarning ko‘zga kam tashlanadigan belgilariga va kuzatish natijasida aniqlanadigan xususiyatlariga asoslanib nomlash faol ekanligi aniqlandi.

7. O‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlarining shakllanishi ko‘rish orqali bilish, kuzatish orqali anglash, milliy-madaniy, mentallik tamoyillariga asoslanadi. Ko‘rinish freymi omilidagi nomlashda ko‘rish orqali bilish tamoyiliga asoslanilgan. Belgi-xususiyat, davolash freymi orqali nomlashda kuzatish orqali anglash tamoyili amal qiladi. Shaxs va jonzot freymi asosida nomlash milliy-madaniy, mentallik tamoyiliga ko‘ra amalga oshadi.

O‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlari shakllanishining lingvokognitiv asoslari tibbiy terminlar taraqqiyotida madaniyatlarning mental xususiyatlarini, dunyoqarashini, olam manzarasini aks ettirish usullarini yoritishga xizmat qiladi.

8. O‘zbek va ingliz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlari kognitiv maydondagi o‘rni bilan farqlanadi. Dorivor o‘simlik freymidagi tayanch slotlari kognitiv maydonning yadrosini tashkil etadi. Kognitiv maydonning markazidan faol qo‘llanuvchi dorivor o‘simlik nomlari, ularning xom ashyo, choy, kukun, surtma shakllariga oid tushunchalar o‘rin oladi. Kognitiv maydonning yaqin chekka qismida qo‘llanish darajasi nofaol va uzoq chekka qismida kam qo‘llanadigan dorivor o‘simlik nomlari joylashadi.

9. Qo‘shma so‘z, tasviriy ifoda, barqaror birikma, so‘z birikmasi ko‘rinishidagi fitofarmatsevtik terminlar tushuncha ifodalash bilan birga milliy-madaniy, mental belgilarni ham aks ettiradi. Ingliz tilida dorivor o‘simlik komponentli barqaror birikmalar faol qo‘llanadi. Fitofarmatsevtik termin frazeologik birikmaning yadrosini tashkil etib, til sohibining dorivor o‘simlik haqidagi bilimi, tajribasi, tafakkuri asosida badiiy mazmun kasb etadi. Murakkab dorivor o‘simlik nomlarida til sohibi tajribasi asosidagi xulosalar o‘z ifodasini topadi. O‘zbek tilida so‘z, qo‘shma so‘z, so‘z birikmasi ko‘rinishidagi nomlar nisbatan ko‘p miqdorni tashkil etadi. Izofadan shakllangan nomlar ham kuzatiladi.

Ingliz tilidagi fitofarmatsevtik terminlarda murakkab shakllar nisbatan ko‘p miqdorni tashkil etdi. Ingliz tilida qisqartma terminlar ham uchraydi.

10. Dorivor o‘simliklar tarkibi bir necha kimyoviy moddalardan, tirik organizm uchun zarur elementlardan tashkil topgan bo‘lib, ular har doim ham nomda aks etmaydi. O‘simliklardan tayyorlanadigan dorilar surtma, kukun, surgi, damlama, choy, tabletka ko‘rinishida bo‘lib, ularning nomlanishida o‘simlik, kasallik, tana a‘zosi kognitiv belgilari aks etadi.

Dorivor o‘simlik nomlari inson ehtiyoji, hayot tarzi, kundalik turmush tarzi, kuzatishlari, ko‘rish, hid, ta’m bilish, aqliy bilish hamda idrok etish xususiyati bilan bog‘liq kognitiv belgilarni o‘zida namoyon qiladi.

ONE-TIME SCIENTIFIC COUNCIL No. DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 FOR THE AWARD OF SCIENTIFIC DEGREES AT THE TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVOI

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVOI

RAKHIMOVA NIGORA POLVONNAZIROVNA

COGNITIVE-SEMANTIC FEATURES OF THE NAMES OF MEDICINAL PLANTS IN UZBEK AND ENGLISH

10.00.06 – Comparative Literary Studies, Contrastive Linguistics and Translation Studies

ABSTRACT
Doctor of Philosophy (PhD) dissertations in philological sciences

Tashkent – 2025

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation is registered at the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan for B2024.2.PhD/Fil14685.

The dissertation was completed at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) on the website of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi (www.tsuull.uz) and on the website of "Ziyonet") and in the information and educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:	**Kholmanova Zulkhumor Turdiyevna** Doctor of Philological Sciences, Professor
Official opponents:	**Mukhamedova Saodat Khudoyberdiyevna** Doctor of Philological Sciences, Professor
	Muratdkhodzhaeva Feruza Khotamovna. Doctor of Philosophy in Philological Sciences, Associate Professor
Lead organization:	**Uzbek National Pedagogical University**

The defense will take place on 15 09, 2025 at 16 00 at the meeting of the one time Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi (Address: 100100, Tashkent city, Yakkasaray district, Yusuf Khos Hajib street, 103. Tel.: (99871) 281–42–44; fax: (99871) 281–42–44, e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

The dissertation can be reviewed at the Information Resource Center at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi (registered under the number 162). Address: 100100, Tashkent city, Yakkasaray district, Yusuf Khos Hajib street, 103. Tel.: (99871) 281–42–44; fax: (99871) 281–42–44.

The abstract of the dissertation is distributed on 22.08, 2025.

(Protocol at the registred No. 1 on 22.08, 2025)

N. Z. Normurodova
Chairman of the One-time Dissertation Council, established under the Scientific Council for the Award of Academic Degrees; Doctor of Philological Sciences, Professor

K. U. Pardayev
Academic Secretary of the One-time Dissertation Council, established under the Scientific Council for the Award of Academic Degrees; Doctor of Philological Sciences, Professor

S.E. Normamatov
Academic Secretary of the One-time Dissertation Council, established under the Scientific Council for the Award of Academic Degrees; Doctor of Philological Sciences, Professor

INTRODUCTION
(annotation of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD))

Applicability and necessity of the topic of the dissertation. In global linguistics, the anthropocentric approach makes it possible to substantiate the integrity of human language and thought, and to evaluate them as forms of complex psycho-cognitive processes. Linguistic units are as means of representing concepts. The information which accumulates function of language and the conceptual properties of lexical units in naming notions and denotative features, necessitate a linguo-cognitive approach. Along with reflecting the worldview, lexical units embody background knowledge marked by the speaker's level of thinking, perceptual capacity, and evaluative stance. The cognitive features of social and cultural development that is reflected in lexical units, interpreted through the perception and assessment of the language user, are of great importance in the study of national and ethnic thought as well as in tracing the development of language.

In world linguistics, research has been conducted on lexical units, the relationship between words and terms, the factors of term formation, and semantic features. The reflection of the laws of societal development in the terminology of various fields imposes on linguists the task of researching terms used in a specific field based on the relationship between language and thought. The study of theoretical and practical issues in the system of terminology in harmony with the human factor is becoming a requirement of the times. The transformation of common words into a term, their narrowing in meaning, the expression of new concepts based on metaphor and metonymy, is shown through the analysis of the ability of lexical units to reflect concepts and frames. The formation of field terms in languages of different systems, their continuous development over time, and the study of changes in the cognitive aspect is relevant in the interpretation of language as a product of thinking and perception.

In Uzbekistan, after gaining Independence, special attention is paid to research aimed at studying and systematizing the terminology of the field, in particular, biological terms, in the linguistic aspect. "Ensuring the full and correct use of the state language's capabilities in all spheres of our country's social life, including public administration, modern and innovative technologies, industry, banking and financial system, jurisprudence, diplomacy, military affairs, medicine, and other areas" is being implemented[40]. Issues of translation and regulation of terms are considered as a key factor in the development and education of the field. The study of biological terms based on integration, in particular, the analysis of the names of medicinal plants in Uzbek and English based on a cognitive approach, is important in identifying isomorphic and allomorphic features. Identifying cognitive factors in the formation of names of medicinal plants, approaching lexical-semantic, grammatical, etymological, structural-functional features from

[40] Order of President of the Republic of Uzbekistan No. PF–5850 "On the Measures Aimed on Cardinal Raising the Prestige and Status of the Uzbek Language as State Language". https://lex.uz/

the point of view of reflecting cognitive features is of particular importance in mastering industry terms and improving the quality of education.

The present research in some extend contributes to implementation of the tasks determined by the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 21, 2019 No. UP-5850 "On the Measures Aimed on Cardinal Raising the Prestige and Status of the Uzbek Language as State Language", dated April 10, 2019 No. UP-5707 "On Measures for Further Accelerated Development of the Pharmaceutical Industry of Uzbekistan in 2019-2021", dated October 20, 2020 No. UP-6084 "On Measures for the Further Development of the Uzbek Language and Improvement of Language Policy in Uzbekistan", Resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 20, 2017 No. PP-2909 "On the Further Development of the Higher Education System", dated May 19, 2021 No. PP-5117 "On Measures Aimed on Raising to New Quality Level of Activities on Popularizing the Study of Foreign Languages in the Republic of Uzbekistan, Resolution of the Cabinet of Ministers No. 994 dated August 11, 2017 " On the organization of the collection and use of medicinal plants " as well as other regulatory legal documents adopted in this area.

Correspondence of the research to the priority directions of science and technology development of Uzbekistan. The dissertation was carried out in accordance with the priority direction of the development of science and technology of Uzbekistan I. "Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and a democratic state."

The degree of study of the problem. The oldest source of medical and biological terms is the work "The Canon of Medicine" by Abu Ali Ibn Sina[41]. Encyclopedic scholars such as Abu Bakr Ar-Razi[42], Mahmud Kashgari[43] are the first researchers of medical terms. The work of Abu Rayhan Beruni "Saydana" is considered one of the sources that formed the basis of the formation of world pharmacognosy[44]. Names of medicinal plants have been analyzed in research related to medical terminology, biology, and pharmaceutics. In defining the theoretical foundations of the study of medical terminology, the research of M. Chernyavsky, Y. Neyfax, S. Velichkova, M. Oznigin, Y. Plotskaya[45] is significant. The names of medicinal plants were analyzed in the works of N.Sh. Yagumova, O. Vasilenko, O.G. Rubtsova, M. Velkovich, T.V. Kurkina. Phytonyms in the English language were studied in a comparative and contrasting aspect. In Turkology, the

[41] Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. V kitob. – T., 1992.-152 б.

[42] Абу Бакр Ар-Розий. Касалликлар тарихи. – Т.: Халқ мероси, 1994.

[43] Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I том. – Т., 1960. – 250 б.; II том. – Т. 1961. – 214 б.; III том. – Т., 1963. – 264 б.

[44] Саидова Ф. "Китаб ас-Сайдана фи-т-тиб" ("Книга фармакогнизия в медицине") Абурайхана Беруни источник развития таджикской медицинской терминологии. Дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2013. – 200 б.

[45] Чернявский М.Н. О состоянии древнегреческой фармацевтической терминологии по трудам Гиппократа. Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1996; Нейфах Е.Б. О немецкой фармацевтической терминологии. Дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 1996; Величкова С.М. Структурно-семантические особенности медицинской терминологии в сфере стоматологии (на материале русского и немецкого языков). Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2006. – 165 с.

names of medicinal plants were studied as part of phytonyms in the research of V.V.Nikitin, B.B.Kerbabayev, N.B.Burganova, Y.Dmitriyeva, G.I.Uyukbayeva, B.K.Kaliyev, E.S.Kuliyev, E.R.Akhmetova.

In Uzbek linguistics, medical terms have been studied from a linguistic perspective in the studies of A.Khusanov, A.Kasimov, Z.Mirahmedova, F.Abdulkhairova, B.Suyunov [46]. N.Pazlitdinova analyzed the lexico-semantic features of phytonyms[47]. A lexico-semantic, stylistic analysis of phytonyms in Uzbek classical works was carried out[48]. The names of medicinal plants in the Uzbek language were studied in a comparative aspect[49].

The names of medicinal plants in Uzbek and English have not been studied monographically in the linguocognitive aspect.

Connection of the research with the research work of the higher educational institution where the dissertation was carried out. The dissertation was carried out in accordance with the research work plan of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi within the framework of the topic "Social, historical and modern development of language."

The purpose of the research is to identify the cognitive factors and principles underlying the formation of medicinal plant names in Uzbek and English, substantiating the degree to which the determine the cognitive factors and principles of the names of medicinal plants in the Uzbek and English languages, to substantiate the degree to which the conceptosphere related to the characteristics and healing properties of plants is reflected in terminology, and to reveal similar and different cognitive features.

Research objectives:

Identifying the mental structure of medicinal plant names in Uzbek and English languages, illuminating their historical and etymological characteristics, as well as their features as a terminological system;

Identifying cognitive factors and principles underlying the formation of medicinal plant names in Uzbek and English, based on color, external characteristics, therapeutic properties, and other conceptual frameworks;

Describing the common and distinctive features of medicinal plant names in Uzbek and English;

Analyze the names of medicinal plants in Uzbek and English languages based on cognitive domains and cognitive features.

---

[46] Хусанов А. Названия болезней и их симптомов в узбекском языке. Дисс. ...канд. филол. наук. – Т., 1982. – 188 с.; Касымов А. Фармацевтическая терминология в современном узбекском языке. – Т., 1982. – 156 с.; Мираҳмедова З. Ўзбек тилининг анатомия терминологияси ва уни тартибга солиш муаммолари. – Т.: Фан, 2010; Абдулхаирова Ф. Ўзбек тилида тиббиёт атамаларининг метафорик манзараси. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Т., 2021; Suyunov B. Tibbiy terminlar semantikasi va tezaurusi. Filol. fan. d-ri (DSc) ... diss. – T., 2023. – 207 b.

[47] Пазлитдинова Н.З. Ўзбек тили фитонимларининг лексик-семантик хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD). ... дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 24 б.

[48] Усманова М.С. Алишер Навоий асарларидаги фитонимларнинг лексик-семантик ва стилистик тадқиқи. Филол. фан. б. фалс. док (PhD). ... дисс. – Жиззах, 2022. – 170 б.

[49] Бобокалонов О.О. Француз ва ўзбек тиллари шифобахш ўсимликлар терминосистемасининг лингвомаданий ва лингвокогнитив хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD). ... дисс. автореф. – Бухоро, 2022.

The object of the research is the names of medicinal plants from dictionaries and sources of Uzbek and English medical terms[50].

The subject of the research is the features of expressing the thinking, perception, mental structure of the native speaker of the names of medicinal plants in the Uzbek and English languages.

Research Methods. The dissertation employs descriptive, comparative-historical, statistical, modeling, component analysis methods, and semantic-cognitive analysis.

The scientific novelty of the research is as follows:

the mental structure of the names of medicinal plants in the Uzbek and English languages has been determined, their historical and etymological features, mental factors reflected in their development as a terminological system have been revealed;

medicinal plants have played an important role in human life since ancient times, when naming them in Uzbek and English, their color (yellow andiz, saffron, rosa) , external signs (botakoz, cassia acutifolia “needle”) , medicinal properties (ko'kyol, rhodiola), location, climatic environment (dalachoy, arnica montana “tog’ arnikasi,” gnaphalium uliginosum “botqoq o'ti,” Helichrysum arenarium “qumli o'lmas”) , cognitive factors based on the frames of medicinal (rhodiola), mental processes;

when naming medicinal plants in Uzbek and English languages, the presence of general cognitive approaches stemming from the natural needs of man, the lifestyle of the Uzbek and English peoples, the development of medical views, and specific features related to the assessment of national and cultural characteristics are substantiated;

The place of the names of medicinal plants in the Uzbek and English languages in the cognitive field of the language owner, the core, central parts, near and distant boundaries are determined, the semantic relationships of the concepts of the cognitive field, the fact that the names of medicinal plants, along with biological characteristics, also reflect the historical, mental, and cultural views of the people.

The practical results of the study are as follows

the main directions of the study of the names of medicinal plants in Uzbek and English have been determined;

the study and description of the names of medicinal plants based on the integration of the fields of biology, medicine, and pharmaceuticals are provided;

the etymological features of the terminology of medicinal plants in the Uzbek and English languages are highlighted, and the lexical layers are shown;

working in the dissertation, it is possible to carry out the analysis of terms related to the field from the analysis methods;

